



MAMLAKATIMIZDA INKLYUZIV TURIZMNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

*PhD, dots. **Maxmudova Aziza Pirmamatovna**
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
ORCID: 0009-0003-3406-9225
azizamakhmudova2@gmail.com
Amirova Dilafro'z Anvarovna
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
ORCID: 0009-0006-4177-9278
aminova538@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada yurtimizda inklyuziv turizmning rivojlanish holati o'rganilib, unga ta'sir etuvchi omillar aniqlangan holda mamlakatimizda ushbu turizm turini rivojlantirish istiqbollari mualliflik yondashuvlari asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: inklyuziv turizm, turistik infratuzilmalar, jismoniy qobiliyati cheklanganlar, to'siqsiz turizm, mehnat jamoalari, investitsion mablag'lar.

ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ИНКЛЮЗИВНОГО ТУРИЗМА В НАШЕЙ СТРАНЕ

*PhD, доц. **Махмудова Азиза Пирмаматовна**
Самаркандский институт экономики и сервиса
Амирова Дилафруз Анваровна
Самаркандский институт экономики и сервиса*

Аннотация. В данной статье исследуется состояние развития инклюзивного туризма в нашей стране и освещаются перспективы развития этого вида туризма в нашей стране на основе авторских подходов.

Ключевые слова: инклюзивный туризм, туристическая инфраструктура, люди с ограниченными физическими возможностями, безбарьерный туризм, трудовые сообщества, инвестиционные фонды.

PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF INCLUSIVE TOURISM IN OUR COUNTRY

*PhD, assoc. prof. **Makhmudova Aziza Pirmamatovna**
Samarkand Institute of Economics and Service
Amirova Dilafruz Anvarovna
Samarkand Institute of Economics and Service*

Abstract. This article explores the state of development of inclusive tourism in our country and highlights the prospects for the development of this type of tourism in our country on the basis of author's approaches, with the identification of factors affecting it.

Keywords: inclusive tourism, tourist infrastructures, physically handicapped, barrier-free tourism, labor communities, investment funds.

Kirish.

Inklyuziv turizm – bu turli xil talqin qilinishi mumkin bo'lgan murakkab tushuncha bo'lib, ayrim manbalarda ushbu turizm turiga to'siqsiz turizm, nogironlar uchun turizm deb ham tarif keltirilgan. Inklyuziv turizm faqat nogironlar uchun mo'ljallangan allaqachon adaptiv turizmdan farq qiladi. Inklyuzivlik – bu turli ijtimoiy guruhlarining (nogironlar, keksalar, turli ijtimoiy ozchilik vakillari) ning o'zaro munosabatlaridir. Bunday holda, jamoalar hayotining turli sohalari vakillaridan ushbu guruhlarining har biri alohida iste'dod va qobiliyatlarini o'zaro almashish uchun ongli ravishda tuziladi. Inklyuziv turizm zamonaviy turizm industriyasining eng yangi yo'nalishlaridan biri bo'lib, ya'ni barcha sayohatchilar boshqa shaxslardan qat'iy nazar, teng sharoitlarda va o'zini hurmat qilgan holda turizm xizmatlaridan cheklovlarsiz foydalanishlari mumkin.

Adabiyotlar sharhi.

Tadqiqotimiz davomida bir nechta mahalliy va xalqaro olimlar asarlari o'rganildi. Xorij olimlaridan Bastirkina, Ambrose, Darsi, Karpova, Popova shular jumlasidandir. Yuqoridagi olimlarning mavjud nazariy qarashlarini tahlil qilish asosida dunyoning turli mintaqalarida ushbu turizm sohasiga yondashuv sezilarli bir-biridan farq qiladi. Mamlakatimizda qonun hujjatlari mavjudligiga qaramay, nogironlarning huquqlarini tartibga solish va ushbu turizm turini amalda rivojlanish holati ancha past darajada qolmoqda. Inklyuziv turizm tushunchasini “all inclusive” atamasi bilan aralashtirib yubormaslik kerak. Ikkinchi tushuncha odatda rekreatson turizmga qo'llaniladi. Hozirda inklyuziv turizmga berilgan yagona tushuncha keltirilmagan va ushbu turizm turining ma'nosi ko'plab tariflarga ega.

Rossiya olimi Konanova (2019) “Inklyuziv turizm” nomli asarida ushbu turizm turiga quyidagicha ta'rif bergan. “Inklyuziv turizm – bu nafaqat faol dam oluchilar uchun balki, jismoniy imkoniyati cheklangan insonlar uchun ham dam olish imkoniyatini yaratishdir”. Ayni paytda ushbu turizm turiga bog'liq bo'lgan va keng tarqalgan atamalar quyidagilardir:

1. Muayyan shaxsning jismoniy qobiliyatlari yoki nogironligidan qat'iy nazar barcha toifadagi iste'molchilar uchun turizm.

2. To'siqsiz turizm – bu biznesning bir turi bo'lib, bu insonlarning ma'lumoti va shaxsiyatidan qat'iy nazar, ularning ehtiyojlarini hisobga olgan holda turistik xizmatlarni tashkil qilishdir.

3. Inklyuziv turizm – bu insonlarning ijtimoiy kelib chiqishi va nogironligidan qat'iy nazar turizmning barcha xizmatlaridan to'liq foydalana olish imkoniyatidir.

Djavadova (2020) fikricha, inklyuziya bu jamiyat hayotini shunday tashkillashtirish prinsipiki, barcha insonlarga ularning tashqi ko'rinishlari, kelib chiqishi yoki sog'lig'ining holatidanqat'iy nazar turli jabhalarda ishtirok etish demakdir. Inklyuziv turizm tushunchasini aniqlashda Scheyvens va Biddulf (2018) inklyuziv turizm rivojlanishining turli xil 7ta elementlarini ilgari surishgan. Ularning fikriga ko'ra, bu elementlar inklyuziv turizmni tadqiq qilishning yo'nalishlarini aks ettiradi.

Semchenko, Nezhelchenko, Yasenok va Boltenkolar fikricha, inklyuziv turizm odatda doimiy yoki vaqtinchalik cheklovlar hamda jismoniy imkoniyatlardan qat'iy nazar barcha uchun foydalanish mumkin bo'lgan turizm sifatida tushuniladi.

So'ngi o'n yil ichida ekspert tahlillari turizm biznesining ushbu sohasida jadal o'sishni ko'rsatmoqda, garchi chet elda ham ushbu turizm turini massiv deb aniqlash qiyin bo'lsa ham. Butun dunyoda inklyuziv turizmga talab ortib bormoqda.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonida analiz va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli, qiyosiy va omilli tahlil, ilmiy abstraksiya, sosiologik so'rov va boshqa usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Nogironlik yoki insonning jismoniy qobiliyatining cheklanishi murakkab ijtimoiy omil bo'lib, uning ta'sirini hech bir jamiyat e'tiborsiz qoldira olmaydi. Mamlakatimizda bugungi kunda nogironlar va maxsus jismoniy sharoitlarga ega odamlar uchun ularning ahvolini yengillashtirishga qaratilgan ko'plab tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.01.2024 yildagi "Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-9-son Farmonida mehnat jamoalari va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining mamlakatimiz bo'ylab sayohatlarini tizimli tashkil etish bo'yicha aniq reja-jadvallarni ishlab chiqish va tasdiqlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilangan (Farmon. 2024).

Inklyuziv turizm sohasini rivojlantirish iqtisodiy o'sish va bandlikka katta yordam bo'lib xizmat qiladi va davlat jamiyat uchun, birinchi navbatda, inson huquqlari va erkinliklarini hurmat qilish, dam olish va nogiron sayyohlar uchun ishlash huquqini amalga oshirish nuqtai nazaridan ijtimoiy vazifa bo'lib xizmat qilishi kerak.

Inklyuziv turizmni rivojlantirishning uzoq muddatli maqsadi – barcha sayyohlar, ularning shaxsiy ehtiyojlari, yoshi va jismoniy cheklavlaridan qat'iy nazar, faol ishtrok etishi mumkin bo'lgan turistik muhitni yaratish, bu ijtimoiy birdamlikka va nogironlarni chetlashtirishni yengishga olib keladi.

Bizning fikrimizcha ushbu turizm turini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun quyidagi xizmat ko'rsatish tarmoqlarining uzviyligini ta'minlash maqsadga muvofiqdir:

- Joylashtirish vositalari imkoniyatlarining mavjudligi;
- Transport xizmatlarining rivojlanganlik darajasi;
- Turistik infratuzilmalarning axborot bilan ta'minlanganlik darajasi.

Bizning fikrimizcha, sayyohlik kompaniyalari, turar joy binolari va boshqa turistik infratuzilma binolari, jumladan transport sohasining axborot veb-saytlari ham ko'zi ojiz foydalanuvchilar uchun ochiq bo'lishi kerak. Bundan tashqari madaniy ob'ektlar, xususan muzeylar, teatrlar, me'moriy va tarixiy yodgorliklar, davlat muassasalari va boshqa tashkilotlar ham nogiron sayohatchilarning dam olishlari, ekskursion iste'molni amalga oshirishlari uchun to'liq imkoniyatlarni yaratishlari maqsadga muvofiq.

Mamlakatimizda inklyuziv turizmning rivojlanishini tahlil qilish jarayonida ushbu turizm turini rivojlantirishda bir qator to'siqlar mavjudligi aniqlandi, xususan,

- Inklyuziv turizm hududi sifatida turistik dessinatsiyalarning reklamasi yetarli emas.
- Inklyuziv turizm sohasidagi statistik ma'lumotlarning yetarli emasligi (va ba'zan yo'qligi).

- Inklyuziv turizm mijozlarining moliyaviy imkoniyatlarining qoniqarsiz holati.

- Nogiron sayyohlarning ehtiyojlariga moslashtirilgan shahar infratuzilmasining talabga javob bermasligi, ya'ni moslashtirilgan shahar transporti, nogironlar uchun piyodalar yo'laklarining mavjud emasligi.

- Ushbu turdagi turizm turining past investitsion jozibadorligi;

- Malakali kadrlarning yetishmasligi.

Nogironlar uchun turizmni tashkil qilishda bir qancha to'siqlar mavjudligini inobatga olish zarur, ushbu to'siqlarni ichki, tashqi va aloqa to'siqlariga bo'lish mumkin.

Davlatning qulay turizmni rivojlantirish uchun javobgarligi uning nogironlar uchun qulay muhitini yaratish uchun mablag'larni jalb qilish jarayonida o'ynaydigan roli bilan belgilanadi, bu mamlakatning o'zi uchun ham, davlat va mintaqaviy tuzilmalar uchun ham muhimdir. Ta'sir qilishning asosiy vositalari quyidagilardir:

- milliy ustvorliklarni aniqlash asosida rejalashtirilgan rivojlanish konsepsiyasiga yo'naltirilishi lozim bo'lgan turizm sohasida faoliyatini rivojlantirish jarayoni ustidan nazoratni ta'minlash;

- davlat organlarining vakolatiga kiruvchi va har qanday ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat uchun ayniqsa, inklyuziv turizm asos bo'lgan tegishli infratuzilmani shakillantirish;

- davlat aralashuvi, zarurat tug'ilganda, birinchi navbatda, hajmi ko'pincha biznes sohasidagi manfaatdor tomonlarning imkoniyatlaridan oshib ketadigan kapitalni talab qiluvchi loyihalarni amalga oshirish uchun dolzarbdir (bu turizmning ijtimoiy ahamiyatga ega turlari uchun zarur infratuzilmani rivojlantirish va yaratish uchun dolzarbdir).

- investitsiyalar hajmi bo'yicha qarorlarni asoslashga bevosita ta'sir ko'rsatadigan qulay turizmni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash (davlat ko'magida ishlab chiqilgan sanoat korxonalari va rivojlanish dasturlari investitsiyalar uchun eng jozibador hisoblanadi).

Xulosa va takliflar.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj nafaqat ichki balki xorijiy sayyohlarning ham ehtiyojini qondira oladigan va soliq tushumlari, investitsiyalar oqimi va ish o'rinlarini yaratish kabi manbalar orqali mamlakat va uning mintaqalarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga katta hissa qo'shadigan zamonaviy raqobatbardosh turizm mahsulotini yaratish uchun aniq, tizimli va maqsadli davlat siyosatini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Mamlakatimizda inklyuziv turizmni rivojlantirishning dolzarbligi shundan iboratki, nogironlar uchun turizm nafaqat dam olish va reabilitatsiya vositasi, balki, bu orqali ijtimoiy himoyaga muhtoj insonlar jismoniy funksiyalarini faollashtirish va uni qayta tiklash imkoniyati hamdir. Shu bilan birga, dam oluvchilar o'z navbatida aqliy resurslarni safarbar qilish bilan birga, o'zlarining psixiko-emotsional munosabatlarini tiklaydi va o'zini-o'zi qadrlash ahamiyatini oshiradi. Inklyuziv turizmning ko'p tarmoqli tabiati turizm bozorining dinamikasi va tuzilishini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar to'plamini, shu jumladan arzon turizm sohasida statistik o'rganishga asoslangan uslubiy vositalardan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Tadqiqotlarimiz davomida inklyuziv turizmni tashkil etishga ta'sir qiladigan quyidagi omillarni keltirishimiz mumkin:

1. Potensial sayyohlarning jismoniy holati (nogironlik, cheklangan huquq layoqati).
2. Potensial sayyohlarning moliyaviy ahvoli (sayyohat uchun mablag' yetishmasligi).
3. Nogironlar uchun qulay transport xizmatlarining ko'rsatilmasligi.
4. Turar joy binolari uchun oshirilgan narxlar.
5. Byurokratik to'siqlarning mavjudligi (masalan, xorijiy sayyohat uchun viza tartibining murakkabligi).
6. Turistik mahsulotlar haqida noto'g'ri axborotning tarqalganligi, ya'ni zaif reklama.
7. Nogironlar uchun mavjud bo'lgan turistik xizmatlar va turistik yo'nalishlarning cheklangan doirasi.
8. Insonlarga sayohat qilishlari uchun motivatsiyaning yetishmasligi.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun quyidagi chora-tadbirlarning majmuasini taklif qilish mumkin:

1. Inklyuziv turizm uchun transport va mehmonxona tuzilmasini yaratish, shu jumladan, ayeroportlar, vokzallar, vagonlar va avtobuslar uchun uskunalar, maxsus to'xtash joylari, liftlar, mehmonxona xonalarini nogironlar maxsus jihozlar bilan ta'minlash.

2. Tibbiy turizmni rivojlantirish, sog'liqni saqlash va sog'lomlashtirish muassasalari tarmog'ini kengaytirish, bu orqali nogironlar sog'ligini yaxshilash va natijada sayohat qilish qobiliyatini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

3. Ijtimoiy turizmni rivojlantirish, kam ta'minlangan aholining turistik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, oilaviy va mavsumdan tashqari turizmni rag'batlantirish.

4. Yo'l infratuzilmasini yaxshilash, transport vositalarini qurish, chiptalar sotish tizimini takomillashtirish. Raqobatbardosh transport turlari – temir yo'l, havo transporti hamda yo'lovchilarni charter tashishni samarali tashkil etish.

5. Ixtisoslashtirilgan mehmonxona tarmoqlarini kengaytirish, ularga egalik qiluvchi jismoniy va yuridik shaxslar uchun soliq imtiyozlari orqali ularning qurilishini rag'batlantirish.

6. Nogironlar uchun qulay bo'lgan sayyohlik va diqqatga sazovor joylarni tomosha qilish xizmatlarini axborot bilan ta'minlash tizimini ishlab chiqish.

7. Sayyohlik agentliklari va turoperatorlar tomonidan xizmat turlarini kengaytirish, tegishli ijtimoiy guruhlar ehtiyojlariga muvofiq turistik yo'nalishlarni shakllantirish.

Mamlakatimizda turistlarning bu kabi toifasi ehtiyojlarini hisobga olgan holda turistik mahsulotlarni inklyuziv turizm nuqtai nazaridan loyihalash odatiy holga aylanish kerak, ammo turizm sanoatining imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklarini bartaraf etish uchun mintaqalarning turistik salohiyatini to'liq amalga oshirishni ta'minlash maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar /Литература/Reference:

Farmon (2024) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.01.2024 yildagi "Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-9-son Farmoni.

Mahmudova, A. (2018) Ensuring the competitiveness of the scientific approaches of ecotourism. A case of Uzbekistan. *American Journal of Economics and Business Management*, 1(4), 1-8.

Makhmudova, A. P., & Karimov, A. (2022). Conflict situations in tourism enterprises and ways to solve them. *International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences*, 2(2), 103-106.

Scheyvens, R., Biddulph, R. (2018) Inclusive tourism development. *Tour. Geogr.* 589–609-p.

Джавадова, С. А. (2020). Перспективы развития инклюзивного туризма в России. *E-Scio*, (2 (41)), 177-183.

Конанова Е.И. (2019) Инклюзивный туризм. Технология и организация туристического продукта. Учебное пособие. Ростов на Дону – Таганрог. Издательство Южный Федеральный университет.